



INGLIZ TILINI O‘QITISH VA O‘RGANISHDA QO‘SHIQLARNING AHAMIYATI

Gulrux Xasanova

Samarqand davlat chet tillari instituti dotsenti v.b., PhD

Mohiruy Maxmasaidova

Samarqand davlat chet tillari instituti

xorijiy til va adabiyoti fakulteti

Annotatsiya: Bugungi rivojlanayotgan davr talablaridan biri bu xorijiy tillarni o‘rganish hisoblanadi. Bu til asosan ingliz tili bo‘lib, uni o‘rganishning yo‘llaridan biri qo‘shiq va musiqadir. Tadqiqot va kuzatishlar natijasida ingliz qo‘shiqlari orqali ta‘lim sohasidagi pedagogik vosita sifatida qo‘llanilishi o‘quvchilarning ikkinchi tilni oson va samarali egallashiga ijobiy ta‘sir etishi aniqlandi. Ushbu maqolada tilini qo‘shiq bilan samarali o‘rganish shuningdek, uning foydali va zararli tomonlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: ingliz tili, o‘quv jarayon, qo‘shiqlar, tadqiqotlar, grammatika, urg‘u, lug‘at.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy



talab har bir ta'lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim,- dedi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev [4]

Yurtimizda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o'qitish va o'rganishni ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish va sohani keng rivojlantirish uchun tizimli ishlarni tashkil etish, ulg'ayib kelayotgan har bir yosh avlodni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash, buning uchun barcha shart sharoitlarni yaratish davlatimizning oliy maqsadlaridan biridir.

Ingliz tili darslari barcha o'rganuvchilar uchun qiziqarli va zavqli bo'lishi kerak. Agar topshiriqlar juda qiyin bo'lsa, ayniqsa, o'zining ona tilisi emas ikkinchi til bo'lganligi sababli ingliz tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari so'nishi mumkin. Shuning uchun, o'qituvchilar o'quv jarayonida darsga qo'yilgan maqsadga erishish uchun sinf sharoitini yanada jonli va tabiiy qilishlari kerak. Bunga, albatta, kuy qo'shiqlar katta yordam beradi, ya'ni, ular chet tilini o'rganishda qo'shiqlarni ko'proq qiziqib kuylashadi. Ingliz tili darslarida qo'shiqlardan foydalanish talaffuz, lug'at, grammatika va barcha 4ta ko'nikmalarni o'rgatishda vositadir. Ma'lumki, bolalar birinchi va ikkinchi tilni ham o'zlashtiradilar. Shunga ko'ra, o'qituvchilar tabiiy va haqiqiy ingliz atmosferasini dars mobaynida paydo qilgan ravishda tilni o'quvchilarga o'rgatish lozim. Eng muhimi, qo'shiqlar barcha maqsadlarga mos keladigan haqiqiy til manbaidir.

Ko'p tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, o'quvchilarga chet tilini o'tish mobaynida asl materiallardan qanchalik ko'p foydalanilsa shunchalik o'rganuvchilarda ko'p g'ayrat va rag'batlanishlar yuzaga keladi. Bunday materiallar nafaol o'quvchilarning davomatini va ularning konsentratsiyasini yaxshilashiga ham albatta, katta ko'mak beradi. Krashen va Terrelning fikricha, tilni o'zlashtirish uchun qo'shiqlarni tabiiy jarayonda kommunikativ vaziyatlarda ya'ni, bolalarning o'rtoqlari bilan kuylash orqali ularda tildagi qobiliyatni rivojlantirish ko'makdir[2]. Qiziqarli qo'shiq aytish bolalarga til o'rganish jarayonida so'zlar va jumlar tuzilishini o'rganish va eslab qolishga yordam beradi. Buning eng



muhim sababi shundaki, qo‘shiqlar boshlang‘ich ta‘limda ingliz tilini o‘qitishda asosiy o‘rinda turishidadir. Ingliz qo‘shiqlari yordamida o‘quvchilarning so‘z boyligini boyitish yoki grammatika va turli xil ingliz urg‘ularini yaxshilash maqsadida sinfdagi mashg‘ulot sifatida foydalanishimiz mumkin. Tadqiqotchi Fillipsning so‘zlariga ko‘ra, “Bolalar qo‘shiqlari ingliz tilining tovushlari, qofiyalari va stress naqshlarini mashq qilish uchun o‘rgatiladi”[3]. Haqiqatan ham, ular inglizcha so‘zlarni qanday talaffuz qilishda yordam beradi.

“Qo‘shiqlarning foydalari ikkita asosiy omil: lingvistik omillar va samarali omillar ostida umumlashtiriladi”[1]. Ko‘proq ma‘lumotga ega bo‘lish maqsadida boshlang‘ich maktablarda darslarini kuzatilganida va kuzatuv davomida shuni guvohi bo‘linganki, birinchidan, bolalar uchun mo‘ljallangan qo‘shiqlarida juda ko‘p takrorlanishlar mavjud, bunda ma‘lum bir so‘zlar bir necha marta takrorlanadi va yodda qolish oson bo‘ladi. Bu bolalarning so‘z boyligini kengaytirishga yordam beradi, shuning uchun ular ushbu so‘zlarni har kuni o‘zaro muloqotda ishlatishlari mumkin. Masalan, yosh o‘quvchilarga tana a‘zolarini o‘rgatuvchi “Head, shoulders, knees and toes” qo‘shig‘idan foydalaniladi. Bu nafaqat tana qismlarini tanishtirishga yordam berdi, balki ularni dars mobaynida faol bo‘lishga undaydi. **“Old MacDonald had a farm”** qo‘shig‘i hatto eng kichik bo‘g‘inlarni ham **“e-i-e-i-o”** unlilarini ifodalashda yoki hayvonlarning tovushlarini aytishda ko‘maklashadi. Umuman olganda, qo‘shiqlar orqali o‘rgatish ta‘limning eng samarali yo‘li deb hisoblayman. Shuningdek, shu o‘rinda bir narsani ta‘kidlab o‘tish kerakki, tilni o‘rganish natijasida o‘sha tilning madaniyati ham kirib keladi va buning ba‘zi tomonlari bizning mentalitetimizga tog‘ri kelmay qoladi.



RIHANNA “DIAMONDS”

Find light in the beautiful sea, I choose to be happy
You and I, you and I, we're like diamonds in the sky
You're a shooting star I see, a vision of ecstasy
When you hold me, I'm alive, we're like diamonds in the sky

I knew that we'd become one right away
Oh, right away
At first sight I felt the energy of sun rays
I saw the life inside your eyes

So shine bright, tonight, you and I
We're beautiful like diamonds in the sky

Tarjimasi

Chiroyli dengizda nur top, men baxtli bo'lishni tanlayman



Sen va men, sen va men, biz osmondagi olmosdekmiz
Men ko'raman, siz uchayotgan yulduzsiz, ekstazning tasavvurisiz
Meni tutsang, men tirikman, osmondagi olmosdekmiz
Biz darhol bir bo'lib qolishimizni bilardim
Oh, darhol
Bir qarashda men quyosh nurlarining energiyasini his qildim
Ko'zlaringdagi hayotni ko'rdim
Shunday qilib, bu kecha siz va men yorqinroq bo'ling
Biz osmondagi olmosdek go'zalmiz

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Isabel Maria. The use of rhymes and songs in the teaching of English in Primary Education.Docencia e investigacion. N 25.2 (2015)
2. Krashen, Stephan D, and Terral, Tracy. D. (1983). The natural approach. New Jersey: Alemany Press Regent/ Prentice Hall
3. Philips S.(1993) Young learners. Oxford. England: Oxford University Press
4. <https://yuz.uz/uz/news/prezident-xorijiy-tillarni-orgatish-boyicha-kelajak-uchun-mustahkam-poydevor-boladigan-yangi-tizimni-yolga-qoyish-vaqti-soati-keldi>